

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI



Elektron ilmiy-ommabop jurnal

2025

2 -SON

(+998) 50-005-45-69

https://t.me/demografiya_mehnatbozori

demografiya_mehnat_bozori@mail.ru

**DEMOGRAFIYA
VA MEHNAT
BOZORI**

**2025-yil
2-son**

Elektron ilmiy-ommabop jurnal
Электронный научно-популярный журнал
Electronic popular science journal

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

TAHRIR HAY' ATI:

Abduraxmonov Qalandar Xodjaevich, i.f.d., akademik.
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof.,
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof.,
Axmedov Durbek Quدراتillaevich, i.f.d., professor
Umurzakov Baxodir Xamidovich, i.f.d., prof.,
Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, i.f.d., prof.,
Arabov Nurali Uralovich, i.f.d., prof.,
Abduraxmonova Gulnora Qalandarovna, i.f.d., prof.,
Mamadaliyeva Xafiza Xoldarovna, i.f.d., prof.,
Irmatova Aziza Baxromovna, i.f.d., prof.,
Tojiyeva Zulxumor Nazarovna, g.f.d., professor
Isayev Faxriddin Ikramovich, i.f.d., prof.
Usmanov Anvar Saidmaxmudovich, i.f.d., professor
Qodirov Abdurashid Madjidovich, i.f.d., professor
Hermann Sterzinger, i.f.d., professor (Germaniya)
Ergashxodjaeva Shaxnoza Djasurovna, i.f.d., professor
Tomash Kuchera, i.f.d., professor (Chexiya)
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li, PhD
Shakarov Zafar Gaffarovich, PhD, dotsent
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li, PhD
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li, PhD
Asqarova Muhabbat Ibraximovna
Bahriddinova Muazzam Azam qizi

MUNDARIJA

Умурзаков Баходир Хамидович, Акбарова Малика Ильхомовна <i>Стратегические направления повышения занятости населения в Республике Узбекистан: анализ современного состояния и прогнозирование на период до 2030 года.....</i>	4
Saidjabbor Shoiri Saidg'affor q'izi <i>Гендер тенглиги ва минтақаларнинг барқарор ривожланишини таъминлашнинг хорижий амалиёти.....</i>	17
Файзиева Дилафруз Шухратовна <i>Демографик ўсиш ва иқтисодий ривожланишнинг ўзаро алоқадорлиги.....</i>	34
Gulmurodov Kamoliddin Abduqodir o'g'li <i>O'zbekiston aholi soniga tashqi mehnat migratsiyasining ta'sirini baholash.....</i>	46
Xudayberdiyev Islamjan Zakirovich <i>Aholining kapital bozorda ishtirok etishga bo'lgan qiziqishini baholash.....</i>	55
Ibrogimov Sherzodbek Xalimjon o'g'li <i>Hududlarda yashil iqtisodiyot sharoitida innovatsion jarayondan foydalangan holda zamonaviy mehnat bozorining rivojlanishi.....</i>	63
Yunusova Ugiloy Bolqiboyevna <i>Problems and solutions in organizing public events in Uzbekistan.....</i>	74
Maxmudov Asliddin Sirojiddin o'g'li <i>Moliyaviy salohiyatni baholash metodologiyasini shakllanishida makroiqtisodiy indikatorlarning ahamiyatliligi.....</i>	88
Soatov Farhod Komiljon o'g'li <i>Raqamli platformalar orqali real vaqt rejimida boshqaruv hisobotlarini shakllantirish</i>	103
Жулиева Гулноз Юлдашевна, Джулибеков Нурмат Каршибекович <i>«Зелёная» экономика Республики Узбекистан, перспективы развития.....</i>	113
Умурзаков Баходир Хамидович <i>Меҳнат ресурсларининг сифат ва малакавий таркибини шакллантиришда инновацион тенденциялардан фойдаланишнинг хориж тажрибаси таҳлили.....</i>	120
Мирзаева Матлуба Ғайбулла қизи <i>Банклар ресурс базасини мустаҳкамлашда капиталнинг ўрни.....</i>	129
Mamatqulova Mushtariy Komiljon qizi <i>O'zbekiston fiskal siyosatining mehnat migratsiyasi va bandlikka ta'siri: konseptual tahlil</i>	135
Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li <i>Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning asosiy yo'nalishlari.....</i>	
Samijonov Musobek G'ayratjon o'g'li <i>Xorijiy investitsiyalar va sanoat korxonalarini modernizatsiyalash: muammo va imkoniyatlar</i>	160
Suvonov Bekniyoz Baxtiyor o'g'li <i>Mehnat ko'rsatkichlari tahlilining xorij tajribasi va undan respublikamizda qo'llash jihatlari.....</i>	140

KICHIK BIZNES UCHUN INVESTITSION MUHITNI YAXSHILASHNING ASOSIY YO'NALISHLARI

Jurayev Elyorbek Sobirjon o'g'li

Namangan davlat texnika universiteti

Iqtisodiyot kafedrası dotsenti, PhD.

ORCID: 0000-0002-5898-6568

+998939161816

maclaren1988@mail.ru

Annotatsiya: Maqolada kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilash masalalari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilingan. Unda bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznesning iqtisodiy o'sish, bandlikni ta'minlash va hududiy tafovutlarni kamaytirishdagi roli yoritilgan. Xulosa sifatida kichik biznes uchun qulay investitsion muhitni yaratish iqtisodiy o'sish sur'atlarini jadallashtirish, hududlararo tafovutlarni kamaytirish hamda mamlakat raqobatbardoshligini oshirishning strategik omili ekani ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: kichik biznes, investitsion muhit, investitsion jozibadorlik, hududiy iqtisodiyot, investitsiya siyosati, infratuzilma.

ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ УЛУЧШЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ СРЕДЫ ДЛЯ МАЛОГО БИЗНЕСА

Жураев Элёрбек Собиржон угли

Наманганский государственный технический университет

Доцент кафедры экономики,

доктор философии по экономике(PhD).

Аннотация: В статье анализируются вопросы улучшения инвестиционного климата для малого бизнеса с научно-теоретической и практической точки зрения. Раскрывается роль малого бизнеса в экономическом росте, создании рабочих мест и сокращении региональных диспропорций в условиях рыночной экономики. В заключении подчеркивается, что создание благоприятного инвестиционного климата для малого бизнеса является стратегическим фактором ускорения экономического роста, сокращения региональных диспропорций и повышения конкурентоспособности страны.

Ключевые слова: малый бизнес, инвестиционный климат, инвестиционная привлекательность, региональная экономика, инвестиционная политика, инфраструктура.

KEY DIRECTIONS FOR IMPROVING THE INVESTMENT CLIMATE FOR SMALL BUSINESS

Juraev Elyorbek Sobirjon oqli

Namangan State Technical University

Associate professor of economics,

Doctor of Philosophy in Economics.

Abstract. *The article analyzes the issues of improving the investment climate for small businesses from a scientific, theoretical and practical perspective. It highlights the role of small businesses in economic growth, employment generation and reduction of regional disparities in a market economy. In conclusion, it is emphasized that creating a favorable investment climate for small businesses is a strategic factor in accelerating economic growth, reducing regional disparities and increasing the country's competitiveness.*

Keywords: *small business, investment climate, investment attractiveness, regional economy, investment policy, infrastructure.*

Kirish.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik mamlakatning iqtisodiy o'sishi, bandlikni ta'minlash hamda aholining daromadlarini oshirishda muhim drayver vazifasini bajaradi. Jahon tajribasi shuni ko'rsatadiki, kichik biznes uchun qulay investitsion muhitni shakllantirish nafaqat milliy iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga, balki hududiy iqtisodiy tafovutlarni kamaytirishga ham bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli kichik biznes subyektlari uchun barqaror investitsiya muhitini yaratish masalasi bugungi kunda dolzarb iqtisodiy vazifalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash masalasiga doimiy ravishda alohida e'tibor qaratib keladi. Davlat rahbarining ta'kidlashicha: *"Bizning asosiy maqsadimiz – tadbirkorlar uchun keng yo'l ochib berish, ularning erkin faoliyat yuritishi, yangi ish o'rinlari yaratishi va jamiyat farovonligiga hissa qo'shishi uchun barcha sharoitlarni yaratib berishdir"*. Bu fikr kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilashning strategik ahamiyatini yaqqol ko'rsatadi [1. Sh. Mirziyoyev].

Bugungi iqtisodiy sharoitda va kuchayib borayotgan raqobat sharoitida subyektning investitsiyalarni jalb qilish qobiliyati, ya'ni investitsion jozibadorligi katta ahamiyatga ega. Bu ko'p jihatdan tashqi va ichki muhitning barqarorligi, iqtisodiy faoliyat samaradorligi, bajarilgan vazifalarning ustuvorligi va boshqalarga bog'liq.

Adabiyotlar tahlili.

Ko'plab tadqiqotlarda kichik biznes mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy omillaridan biri sifatida e'tirof etiladi. Xususan, iqtisodchi olimlar tadqiqotida, kichik biznesning yuqori moslashuvchanligi, tezkor qaror qabul qilish qobiliyati va past xarajatlar sharoitida faoliyat yuritishi uni iqtisodiyotda barqaror o'sish drayveriga aylantiradi. Shuningdek, MDH mamlakatlarida faoliyat olib borayotgan iqtisochi olimlar, kichik biznesni qo'llab-quvvatlash davlat iqtisodiy siyosatining ustuvor vazifalaridan biri ekanini ta'kidlaydi. Investitsion muhitning qulayligi tadbirkorlik subyektlarining faoliyati samaradorligini belgilovchi hal qiluvchi omil sifatida qaraladi. Jahon banki hisobotlarida (World Bank, Doing Business Reports) kichik biznesni rivojlantirish uchun investitsion muhitni soddalashtirish, byurokratik to'siqlarni kamaytirish, huquqiy barqarorlikni ta'minlash asosiy shart sifatida qayd etilgan. UNCTAD hisobotida esa kichik biznesga jalb qilingan to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar innovatsion rivojlanish va yangi ish o'rinlarini yaratishga sezilarli ta'sir ko'rsatishi ko'rsatilgan.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida shakllanmoqda. Prezident Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek: *“Har bir hududda tadbirkorlar uchun teng sharoitlar yaratish, ularning tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash – iqtisodiy barqarorlikning eng muhim kafolatidir”*. 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasida ham kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilash, kreditlash tizimini soddalashtirish, mahalliy va xorijiy investorlar uchun soliq imtiyozlarini kengaytirish ustuvor vazifa sifatida belgilangan [2. Sh. Mirziyoyev].

Investitsion jozibadorlikni baholashning turli yondashuvlari va usullari mavjud bo'lib, ularning barchasini P.Korenyuk, O.Kopil o'z tadqiqotlarida uchta asosiy guruhga bo'lib ko'rsatadi [3. Копенюк П., Копыл О.], [5. E.Jurayev]:

1. Statistik yondashuv. Bu mamlakat iqtisodiyotiga investitsiyalar oqimi to'g'risidagi statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga asoslanadi.

2. Ekspert baholash usuli. Ushbu usuldan foydalangan holda ekspert ko'rsatkichlarning ahamiyatini o'ziga xos baholaydi, ya'ni eng muhimlarini tanlaydi, shundan so'ng ushbu ko'rsatkichlarning dinamikada tahlili o'tkaziladi va mintaqaning investitsion jozibadorligi bo'yicha xulosalar tuziladi.

3. Baholash yondashuvi. Milliy iqtisodiyotning investitsion jozibadorligini baholashda ushbu yondashuvning reyting-tahliliy va so'rovlar asosidagi reyting yondashuvlari bo'yicha ikki turini ajratib ko'rsatish mumkin. Bugungi kunda mamlakat iqtisodiyotining investitsion jozibadorligini baholashning iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy, tartibga solish va boshqa ta'sir omillarini baholashga asoslangan yagona metodologiyasi hali ham mavjud emas, shuning uchun bizningcha,

investitsiya kompleksda bir qancha usullardan foydalanish orqali jozibadorligini baholash zarur.

Tadqiqot metodologiyasi.

Kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilash masalasi kompleks va ko'p qirrali jarayon bo'lib, uni o'rganishda tizimli, mintaqaviy hamda institutsional yondashuvlar qo'llanildi. Tizimli yondashuv orqali kichik biznesni iqtisodiy tizimning ajralmas elementi sifatida ko'rib chiqish, uning investitsion muhitga bog'liqligini aniqlash imkoniyati yaratildi. Mintaqaviy yondashuv esa hududlararo tafovutlarni hisobga olib, turli viloyatlar kesimida investitsion muhitni baholashga asos bo'ldi.

Mintaqaning investitsion jozibadorligini baholash uchun Jahon banki to'rtta asosiy ko'rsatkichdan foydalanishni taklif qiladi: yalpi hududiy mahsulot va aholi jon boshiga to'g'ri keladigan asosiy fondlar hajmi, tabiiy va inson resurslarining xususiyatlari. Hududning yuqori investitsion jozibadorligi uni rivojlantirish uchun yirik investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi va investorlar uchun foydani kafolatlaydi. Mintaqaning investitsion jozibadorligi hududning qulay geografik joylashuvi, zarur tabiiy resurslarning mavjudligi, arzon va malakali ishchi kuchi, rivojlangan infratuzilma va mahsulot sotish bozori bilan belgilanishi mumkin.

Xususan, Namangan viloyatida investitsiya muhitni yaxshilashda uning jozibadorligini oshirish uchun eng avvalo hududning mavjud iqtisodiy salohiyatini to'g'ri baholash va ustuvor sohalarni aniq belgilash lozim. Viloyatning geografik joylashuvi, ishchi kuchi resurslari, qishloq xo'jaligi va sanoat infratuzilmasi, shuningdek xizmatlar sohasi salohiyatidan keng ko'lamda foydalanish zarur. Investorlarga qulay huquqiy va institutsional muhit yaratish, jumladan yer ajratish, ruxsatnomalar olish, soliq va bojxona yengilliklaridan foydalanishni soddalashtirish orqali ular uchun ishonchli tizim barpo etish muhim ahamiyatga ega. Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini faol joriy qilish, infratuzilma (elektr energiyasi, yo'llar, gaz va suv ta'minoti) bilan ta'minlashni yaxshilash, bank-moliya tizimi orqali uzoq muddatli va arzon kreditlar bilan ta'minlash investorlarda ishonch uyg'otadi. Mahalliy ishlab chiqaruvchilar va eksportyorlar uchun logistika markazlarini yaratish, bojxona postlarini raqamlashtirish va soddalashtirish tashqi investitsiyalar oqimini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, xorijiy sarmoyadorlar bilan ishlash bo'yicha viloyat darajasida alohida markaz tashkil etish, investitsion salohiyatni targ'ib qiluvchi brend siyosatini yo'lga qo'yish, xalqaro ko'rgazmalarda Namangan viloyatini faol targ'ib etish ham muhim. Investitsiya sohasida axborot shaffofligi, loyihalar bo'yicha kafolatlar tizimi va davlat tomonidan ko'mak kafolatlari ham investitsiya jozibadorligining muhim omillaridan biridir. Shu bilan birga, kadrlar salohiyatini oshirish, ilmiy-

innovatsion faoliyatni rivojlantirish va universitet-biznes aloqalarini kuchaytirish orqali yuqori texnologiyali, eksportga yo'naltirilgan investitsiya loyihalarini jalb qilish imkoniyatlari kengayadi [6. Жўпаев, Э].

Ma'lumki, investitsiyalash jarayoni uchun qulay shart-sharoitlar yaratilishida moliya tizimi muhim o'rin egallaydi. Moliyaviy tizim zamonaviy bozor iqtisodiyotida investitsion resurslar taqsimlanishi va qayta taqsimlanishiga xizmat qiladi. Kichik biznesdagi investitsion jarayonlar uchun ham bank-moliya tizimining barqarorligi ayniqsa muhim ahamiyatga ega bo'ladi. Bu tizimning yanada mustahkamlanishi ishlab chiqarishni modernizatsiyalashning tez sur'atlarda rivojlanishiga imkon yaratishda muhim rol o'ynaydi. Barqaror va sog'lom moliyaviy tizim mamlakatda real investitsiyalar uchun ichki imkoniyatlarini kengaytiradi va kichik biznesdagi investitsion jarayonlarga ijobiy ta'sir etadi (1-jadval).

1-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo'yicha asosiy kapitalga o'zlashtirilgan investitsiyalar (jamiga nisbatan foizda)

Moliyalashtirish manbalari	2020 yil	2021 yil	2022 yil	2023 yil	2024 yil
Asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'atlari dinamikasi	95,6	102,9	100,9	123,4	127,6
Markazlashgan investitsiyalar:	19,9	19,2	15,7	14,0	10,5
Respublika budjeti	66,4	135,8	84,4	85,0	90,3
Suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlarini rivojlantirish jamg'armasi	98,9	132,7	92,0	86,5	79,9
Markazlashmagan investitsiyalar	80,1	80,8	84,3	86,0	89,5
Korxona mablag'lari	111,2	96,4	110,6	104,2	96,3
Aholi mablag'lari	99,0	104,5	103,2	103,2	98,7
To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiya va kreditlar	163,2	139,8	104,3	125,4	152,0
Tijorat banklari kreditlari va boshqa qarz mablag'lari	94,4	110,9	98,7	90,8	86,5

Izoh: O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika Agentligining yillik natijalari <https://stat.uz/uz>.

Ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki, 2020 yilda asosiy kapitalga investitsiyalar o'sish sur'ati 95,6 foizni tashkil etib, bu yil iqtisodiy faollikning nisbatan sust kechganini anglatadi. 2021 yilda investitsiyalar o'sish sur'ati 102,9 foizga yetib, 2020 yilga nisbatan o'sish kuzatilgan. 2022 yilda investitsiyalar o'sishi 100,9 foiz bilan deyarli barqaror bo'lgan. 2023 yilda esa investitsiyalar sur'ati 123,4 foizga oshib, iqtisodiy faollik ancha jonlanganini ko'rsatadi. 2024 yilda investitsiyalar o'sishi 127,6 foizga yetib, oxirgi besh yildagi eng yuqori ko'rsatkich qayd etilgan. Markazlashgan investitsiyalar hajmi 10,5 foizgacha kamaygan. Respublika budjeti mablag'lari 90,3 foiz, jamg'arma moliyalashtirishi esa 79,9 foizni tashkil

etdi. Markazlashmagan investitsiyalar 89,5 foizgacha ko'paygan. Korxona mablag'lari 96,3 foiz, aholi mablag'lari esa 98,7 foiz bo'ldi. To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar 152,0 foizgacha oshib, eng yuqori darajaga yetgan bo'lsa, tijorat banklari kreditlari 86,5 foizgacha pasaygan.

Bunday sharoitda hukumatning bir qator islohotlarni amalga oshirish, joriy etilgan islohotlarni hisobga olgan holda iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida yangi normativ-huquqiy bazani shakllantirish va samarali boshqaruv bo'yicha aniq qadamlari alohida ahamiyatga ega 2024 yilda Jahon banki tomonidan taqdim etilgan yangi "Business Ready" (B-READY) hisobotiga ko'ra, O'zbekiston biznes yuritish qulayligini oshirish borasida sezilarli yutuqlarga erishdi. Ushbu hisobot ilgari "Doing Business" nomi bilan tanilgan indeks o'rnini egallab, kompaniyalar uchun tartibga solish tizimi va davlat xizmatlarining samaradorligini baholaydi.


O'zbekiston 2024 yilda B-READY hisobotining ilk nashrida qamrab olingan 50 ta mamlakat qatoriga kirdi. Bu tanlov mamlakatning islohotlarga sodiqligi va ma'lumotlar yig'ish imkoniyatlarining mavjudligi bilan bog'liq.

Jahon bankining 2024 yilgi hisobotiga ko'ra, O'zbekiston iqtisodiy islohotlar, tartibga solishdagi soddalashtirishlar hamda investorlar uchun yaratilgan qulay sharoitlar natijasida ijobiy tomonga o'zgardi. Mamlakat tadbirkorlik muhitini yaxshilash, biznes ochish jarayonlarini soddalashtirish, litsenziyalash va ruxsat berish tartiblarini qisqartirish, soliq tizimining shaffofligi va elektron xizmatlarning kengaytirilishi bo'yicha sezilarli yutuqlarga erishdi.

2024 yilda Jahon banki yangi "Business Ready" (B-READY) hisobotini e'lon qildi, bu hisobot ilgari "Doing Business" nomi bilan tanilgan indeks o'rnini egallab, kompaniyalar uchun tartibga solish tizimi va davlat xizmatlarining samaradorligini baholaydi. Ushbu hisobotda O'zbekiston 50 ta mamlakat qatorida baholandi, bu mamlakatning islohotlarga sodiqligi va ma'lumotlar yig'ish imkoniyatlarining mavjudligi bilan bog'liq [8]. Biroq, 2024 yilgi B-READY hisobotida O'zbekistonning aniq reytingi yoki balli ko'rsatilmagan. Shuningdek, 2023 yilda Jahon banki tomonidan "Doing Business" hisobotlari to'xtatilganligi sababli, bu yil uchun ham O'zbekistonning reytingi mavjud emas. Shu bilan birga, boshqa indekslar orqali O'zbekistonning iqtisodiy erkinligi va innovatsion salohiyati haqida ma'lumot olish mumkin. Masalan, 2025 yilda Heritage Foundation tomonidan e'lon qilingan Iqtisodiy Erkinlik Indeksida O'zbekiston 100-o'rinni egallab, umumiy balli 58 ni tashkil etdi. Shuningdek, 2024 yilda Butunjahon Intellektual Mulk Tashkiloti tomonidan e'lon qilingan Global Innovatsiya Indeksida O'zbekiston 71-o'rinni egalladi [9].

O'tkazilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilash masalasi O'zbekiston iqtisodiyotining barqaror rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Hududlar kesimida tahlil

natijalari investitsion jozibadorlik ko'rsatkichlarining sezilarli tafovutlarga ega ekanini ochib berdi. Xususan, Toshkent shahri va Toshkent viloyati kabi markaziy hududlarda investitsiya oqimlari yuqori, jon boshiga investitsiya ko'rsatkichlari ham mamlakat o'rtacha darajasidan yuqori bo'lib, infratuzilma, moliya bozori va xizmatlar sektorining rivojlanganligi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, Xorazm, Surxondaryo, Sirdaryo kabi ayrim hududlarda jon boshiga investitsiya ko'rsatkichlarining pastligi investitsion muhitda hududlararo nomutanosiblik mavjudligini ko'rsatadi.



1-rasm. Investitsion muhitni yanada samarali shakllantirishda hududlarning asosiy drayverlari

Izoh: Muallif tadqiqotlari asosida shakllantirilgan.

Jahon banki, UNCTAD, OECD hamda mahalliy iqtisodchi olimlarning ilmiy qarashlari tahlili shuni ko'rsatadiki, hududning investitsion jozibadorligi faqatgina tabiiy resurslarga emas, balki quyidagi omillarga ham bevosita bog'liqligi keltirilgan.

1. Institutsional barqarorlik (huquqiy kafolatlar, imtiyozlar va ruxsat berish tartiblarining soddaligi);
2. Infratuzilma sifati (yo'l, transport-logistika, energiya va axborot-kommunikatsiya tarmoqlari);
3. Inson kapitali (malakali va arzon ishchi kuchining mavjudligi, ta'lim sifati);
4. Bozor hajmi va iste'mol talabi (aholi soni va tovar/xizmatlarga ehtiyojning barqarorligi).

Bu omillarni tizimli ravishda yaxshilash kichik biznes uchun investitsion muhitni yanada samarali shakllantiradi va xususiy kapital oqimini oshiradi.

Yuqorida fikr-mulohazalardan kelib chiqib, hududlarning asosiy drayverlari etib:

O'zbekiston sharoitida kichik biznes uchun investitsion muhitni yaxshilash iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, hududiy tafovutlarni kamaytirish, innovatsion faoliyatni jadallashtirish hamda xalqaro kapital oqimlarini jalb qilishda strategik ahamiyatga ega. Shuning uchun ham bu jarayonni ilmiy asoslangan mexanizmlar orqali tizimli ravishda rivojlantirish zarur. Shunday qilib, kichik biznes uchun investitsion muhitni takomillashtirish orqali nafaqat iqtisodiy o'sish sur'atlarini tezlashtirish, balki hududiy tafovutlarni yumshatish, yangi ish o'rinlari yaratish va innovatsion faoliyatni kengaytirish mumkin. Bu esa uzoq muddatli istiqbolda mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiruvchi strategik omil sifatida namoyon bo'ladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2020 yil 29-dekabrda Oliy Majlisga Murojaatnomasi.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni.
3. Коренюк П., Копыл О. Концептуальные подходы и методы определения инвестиционной привлекательности национальной экономики Экономический журнал Восточноевропейского национального университета имени Леси Украинки. 2018. Вып. 2. С. 56–62.
4. Juraev, E. S., & Xolmirzayev, U. A. (2020). Supporting small business subjects by tax reforms. Экономика и социум, (1 (68)), 48-52.
5. Жураев, Э. С. (2018). Зарубежный опыт по ведению финансовой политики для развития малого бизнеса. Экономика и социум, (11 (54)), 357-362.
6. Жўраев, Э. (2002). Кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликни ривожлантиришдаги муаммолар. илмий-техника журнали.
7. O'zbekiston Respublikasi Milliy Statistika Qo'mitasining yillik natijalari.
8. <https://www.worldbank.org>
9. <https://www.heritage.org>

DEMOGRAFIYA VA MEHNAT BOZORI

BOSH MUHARRIR:

Umurzoqov Bahodir Xamidovich

MUHARRIR:

Bahriddinova Muazzam Azam qizi

